

WAYS AND METHODS OF USING ROLE-PLAYING GAMES IN MOTHER TONGUE CLASSES FOR THE SOCIALIZATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Zaynab Abdunazarova

Teacher of Termiz State Pedagogical Institute

Annotation

In this article, the process of socialization of elementary school students and the increase of student activity and attention to the lesson during teamwork, the ways and methods of using role-playing games in mother tongue classes are discussed.

Key words: Modern education, method, skill, qualification, Brainstorming, cluster, Integral lesson

Kirish

Mamlakatimiz mustaqilikka erishgan dastlabki kunlardan oq milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishga qodir, jismonan va ma'nan yetuk avlodni kamolga yetkazishga alohida e'tibor qaratildi.

Yoshlar har bir yurt va millatning boyligi, buyuk salohiyati hamda kuch-qudrat manbai ekan, taraqqiyotga intilayotgan jamiyat yoshlarga g'amxo'rlik qilishni birinchi galdagi vazifasi deb bilishi tabiiy[1]. Binobarin, yoshlarga g'amxo'rlik ko'rsatish - yurt va millat kelajagi to'g'risida qayg'urish demakdir. Barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosi. Shu bois, yurtimizda salohiyatli yosh avlodni tarbiyalashga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.

Natija va tahlil. Zamonaviy ta'limda ilg'or metod va usullar, texnika vositalari, o'qitishning yangi shakllaridan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchi yoshlar ta'lim jarayonida faol ishtirokchi, o'qituvchi tashkilotchi, boshqaruvchi bo'lsa, o'g'il-qizlarning dars jarayonida egallagan bilimlari xotiradan mustahkam joy oladi. mavzular yuzasidan zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi. Ular kundalik hayotda kutilmagan vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyasiga ega bo'ladi. O'quvchi yoshlarga yangiliklarga boy dars o'tish, mashg'ulot davomida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, umuman, ta'lim-tarbiya jarayonini davr talabiga mos tashkil etish oson ish emas. Buning uchun o'qituvchidan kuchli bilim, yuksak mahorat va albatta, tinimsiz izlanish talab etiladi[2]. Ayniqsa, endigina olam sirlarini anglayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish o'qituvchilarga birmuncha mas'uliyat yuklaydi. Shu sababdan ham, boshlang'ich ta'limda didaktik o'yin texnologiyalardan foydalanish, eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limning ona tili, o'qish, matematika, tabiatshunoslik darslarida, asosan, "Kichik guruhlarda ishlash", "Aqliy hujum", "Klaster", "BBB", "Tushunchalar tahlili" metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

<https://ejedl.academiascience.org>

Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning is a scholarly peer reviewed international Journal




Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyati o'quvchi — kattalarning o'zaro ta'siri orqali ijtimoiy tajribani o'zlashtirishdir. Bunday modellashtirish og'zaki ko'rsatmalar va ta'limotlarga qaraganda boshlang'ich sinf o'quvchisining ijtimoiy rivojlanishiga ko'proq ta'sir qiladi. O'quvchilar bir-biri bilan aloqa qilmasdan jamoaviy o'yinda ishtirok etisholmaydi. O'yin davomida tengdoshlari bilan aloqa qilish, hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun harakat qiladilar, ular umumiy maqsadga erishish uchun o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish uchun harakat qiladilar. Binobarin, o'yinlarda jamiyat uchun foydali bo'lgan har qanday ishni hurmat qilish tarbiyalanadi, unda ishtirok etish istagi tasdiqlanadi[3].

O'yin va mehnat ko'pincha tabiiy ravishda birlashadi. O'yin axloqiy fazilatlarni shakllantiradi: javobgarlik, sheriklik va do'stlik hissi, umumiy maqsadga erishishda harakatlarni muvofiqlashtirish, munozarali masalalarni adolatli hal qilish qobiliyati. O'yin nafaqat bolaning xatti-harakatlarini, balki uning ichki hayotini ham tartibga soladi, o'zini, dunyoga bo'lgan munosabatini tushunishga yordam beradi. Bu deyarli tashabbus va ijodiy faoliyatni amalga oshiradigan yagona sohadir. Shu bilan birga, o'yinda bola o'zini nazorat qilish va baholashni o'rganadi, nima qilayotganini tushunadi va to'g'ri harakat qilishni o'rganadi. Bu bolani ongli hayot predmetiga aylantiradigan, xatti-harakatlarini ongli va o'zboshimchalik bilan amalga oshiradigan mustaqil tartibga solishdir[4].

Bolaning ijtimoiy tajribani o'rganishi rolli o'yinda sodir bo'ladi. Kattalarning ijtimoiy hayoti uning turli ko'rinishlarida ijodiy rolli o'yinlarning asosiy mazmuni bo'lib xizmat qiladi, chunki bolalar kattalar mehnatining mazmunini, kundalik hayotdagi odamlarning munosabatlari va aloqalarini o'rganadi, kattalarning narsalarga bo'lgan harakatlari va munosabatlarini o'rganadi va hokazo. Aslida, odamlarning o'ziga xos faoliyati va ularning munosabatlari xilma-xil bo'lganligi sababli, o'yinlarning syujetlari juda xilma-xil va o'zgaruvchan[5]. Turli xil tarixiy davrlarda, ijtimoiy-tarixiy, geografik va o'ziga xos yashash sharoitlariga qarab, bolalar turli xil o'yinlarni o'ynashadi. Ijtimoiylashtiruvchi ta'lim muhiti bolaning umumiy madaniyatini shakllantiradigan va o'smirlarni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish uchun sharoit yaratadigan tarbiyaviy bo'lishi mumkin.

Ijtimoiylashuv jarayonining asosi bo'lgan ijtimoiy tajriba nafaqat sub'ektiv ravishda o'zlashtiribgina qolmay, balki shaxsni individuallashtirish manbai bo'lib, faol ravishda qayta ishlanadi, chunki u (ijtimoiy tajriba) har doim bolaning harakatlarining natijasi, tashqi dunyo bilan faol muloqot qilishdir[6]. Shunday qilib, rolli o'yin yosh maktab o'quvchilarining ijtimoiylashuviga katta ahamiyat beradi. Rolli o'yin: bolaga kattalar o'rtasidagi munosabatlar tizimiga a'zo bo'lish imkoniyatini beradi; jamiyatda qabul qilingan me'yorlar va qoidalarni o'zlashtirishga yordam beradi; bolaning rol o'ynashini shakllantiradi; bu bolaga atrofdagi dunyoda o'z o'rnini anglashga imkon beradi.



Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan ayrim syujetli o'yinli dars shakllari: ishchanlik o'yini darsi – mavzu bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi; rolli o'yin darsi – mavzu bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarini mustahkamlash; teatrlashtirilgan dars – mavzu bilan bog'liq sahna ko'rinishlarini tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish[7]; O'yin darsi – mavzuni sahnalashtirilgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash imkoniyatini beradi. Integral – (intergrallashtirilgan) dars – boshqa darslarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil qilingan dars bo'lib, o'quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib, ta'lim jarayonidagi faollikni ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida uyushtirilgan didaktik o'yinlar ham o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda asosiy vosita sanaladi[8]. Unga dam olish yoki vaqt o'tkazish vositasi emas, balki ta'lim beruvchi faoliyat sifatida qarash lozimdir.

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda qo'llaniladigan dasturiy ta'minotga qarab, o'yin fonetik, leksik, grammatik, suhbatga bo'linishi mumkin.

Boshlang'ich ta'lim dars jarayonida qo'llaniladigan syujetli o'yinlarni mazmuniga va amalga oshirish shakliga ko'ra ikki turga ajratishimiz mumkin:

1. Mazmuniga ko'ra.

2. Amalga oshirish shakliga ko'ra.


1. Mazmuniga ko'ra syujetli o'yinlar quyidagi turlarga bo'linadi: tinch o'yinlar; harakatli o'yinlar; aralash turdagi o'yinlar.

2. Shakliga ko'ra syujetli o'yinlar quyidagi turlarga bo'linadi: musobaqa o'yinlari; sahna o'yinlari.

Quyida 1-sinf «Ona tili va o'qish savodxonligi» darslarida qo'llash mumkin bo'lgan syujetli rolli o'yinlar mazmuni bilan tanishtiramiz.

Tinch o'yinlarga quyidagilarni kiritish mumkin: "O'zim tekshiraman", "Hikoya," «U kim, bu nima?», "Topag'on", "Noto'g'ri jumla", "Bo'lishi mumkin emas", "Harflarni top", "O'qib ko'r-chi", "Davom ettir", "Safar", "Sirli so'z", "Zanjir", "O'yin – topishmoq", "Bu meniki", "Tez javob", "Rebus", "boshqotirma». Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan ayrim syujetli rolli o'yinlar bilan tanishib chiqamiz[9].

"Hikoya" o'yinida, o'qituvchi xattaxtaga bir nechta so'z yozib qo'yadi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. Hikoya tuzish jarayonida o'quvchilarning lug'at boyligi ortishi bilan birgalikda, gaplarni to'g'ri tuzish, tovushlarni to'g'ri tashkil qilish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi. O'quvchilarni o'yin jarayonida faol ishtirokini rag'batlantirish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi.



1-variant: Nafisa, soat, yomg'ir, kitob.

2-variant: Olma, kasal, o'rtoq, Abduvali.

3-variant: mushuk, bobo, poliz, non, sichqon.

“U kim, bu nima?” o'yinida, stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo'yiladi. O'qituvchi shu predmetlardan birortasini ta'riflaydi[10]. O'quvchilar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar. Bu o'yinning afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o'quvchilar diqqatini jamlash, qo'llarga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, ona tili darslarida yangi mavzuni bayon qilish jarayonida ham foydalanish mumkin. Bu o'yin o'quvchilarda, ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu o'yindan dam olish daqiqalarida ham unumli foydalanish mumkin.

1-variant: U shar shaklida. Uni katta-katta sportchilarimiz ham stadionlarda o'ynaydilar. Yosh bolalar ham uni sevib o'ynaydilar. (Javob: ”koptok”)

2-variant: U barcha o'quvchilarning o'rtog'idir. Onalarimiz ham, otalarimiz ham uni juda yaxshi ko'radilar. (Javob: “kitob”)

3-variant: U shunday narsaki, bizga vitaminlarga boy meva beradi, xohlasak undan stol yoki stul ham yasash mumkin. (Javob: “Daraxt”)

“Davom ettir” o'yinida, o'qituvchi hikoyani boshlab beradi. O'quvchilar uni davom ettiradilar. Bunda o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyati rivojlanib, bayon yoki insho kabi ijodiy ishlar yozish malakasi rivojlanadi va so'z boyligi ortadi.

1-variant: “ Umida barvaqt maktabga kelayotganida yo'lda...”.


2-variant: “Havo ilib, qorlar erib boshladi...”.

3-variant: “Biz sinfimizdagi barcha o'quvchilar, hayvonot bog'iga bordik...”

“Harakatli o'yinlarga quydagilar kiradi: “ U nima qilyapti?”, ”Jonli hikoya” va “Quruvchi”. “U nima qilyapti” o'yinida, o'quvchilardan biri bolalar oldiga chiqib harakat qiladi. O'quvchilar jamoasi birgalikda uning harakatlarini izohlab berishlari lozim. Bunday o'yin o'qish va ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish, ziyraklik va zeriktirmaslik uchun o'tkaziladi. “Jonli hikoya” o'yinida, o'qituvchi so'zlar yozilgan qog'ozlarni o'quvchilarga tarqatib beradi[11]. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga hikoya qilib beradi. (Qog'ozlarda yozilgan so'zlar birgalikda shu hikoyani hosil qiladi.) O'qituvchi hikoyani ikkinchi marta o'qib berganda o'quvchilar qo'llaridagi qog'ozlarni shunday ketma-ketlikda joylashtirishlari kerakki, qog'ozlarga yozilgan so'zlar bir butun hikoyani hosil qilishi lozim. Bu o'yinni o'tkazishda darslikdagi hikoyalar yoki darslikdan tashqari hikoya va ertaklardan foydalanishlari mumkin.

1-variant: Bahor kelishi bilan havo iliy boshlaydi. Daraxtlar gullab, maysalar ko'kara boshlaydi.

2-variant: Olimjon ko'chada yig'layotgan bolani ko'rib qoldi. U koptogini ariqqa tushirib yuboribdi. Olimjon bolaning koptogini olib berdi.



3-variant: O'rmon shohi sher yig'in o'tkazdi[12]. Ular tulkixonning ishlarini muhokama qildilar. Tulkixon aybini bo'yniga oldi.

"Quruvchi" o'yini o'quvchilarni guruhlariga bo'lib, darsda o'tilgan mavzuni yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismida yoki darsdan tashqari vaqtda o'tkazilishi mumkin. O'qituvchi avvaldan darsga tayyorgarlik ko'rib, qog'ozdan yoki penoplast bo'lakchalaridan "g'ishtchalar" yasaydi va bu "g'ishtchalarga" savol yozilgan qog'ozchalarni yopishtirib chiqadi. "g'ishtchalar" soni o'quvchilar soniga teng yoki ko'p bo'lishi kerak, guruhlariga "minora" yoki "devor" qurishlari uchun joy ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan bola chiqadi va "g'ishtcha" ni olib savolni o'qiydi. Agar savolga bolalar to'g'ri javob topsalar o'zlarining "maydoncha" lariga "g'isht" ni teradilar. Agar noto'g'ri javob bersalar, o'qituvchi "g'ishtcha" ni olib qo'yadi. O'yin shu tahlidda barcha o'quvchilar bittadan "gishtcha" olib bo'lgunlarga qadar davom etadi. "Qurilish maydonchasi" da eng ko'p g'isht tergan o'quvchilar guruhi g'olib hisoblanadi. "Nima yo'qolib qoldi" o'yinida, stol ustida bir necha yoki alohida buyumlar sur'ati tushirilgan kartochkalar joylashtiriladi. O'quvchilar stol ustini yaxshilab kuzatib, narsalarni eslab qoladilar. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga bildirmasdan ularning bittasini olib qo'yadi. O'quvchilar stol ustidan nima yo'qolib qolganini topishlari lozim. Bu o'yin alifbe davrida harflarni o'rganish jarayonida juda qo'l keladi[13].

"Qarmoq" o'yini: Bu o'yindan barcha darslarda qo'shimcha savollar berish yoki turli ertaklarda foydalanish mumkin. Baliqchalar shaklidagi qog'ozchalarga savollar yoziladi va bir chetiga temir qistirg'ichlar qistiriladi. Qarmoq shaklidagi tayoqchalarning uchiga ip va ipning uchiga magnit bo'lakchasi bog'lab qo'yiladi. O'quvchilar bu "qarmoqlar" vositasida "baliqchalar" dan birini tutib olishlari va undagi savolga javob berishlari lozim bo'ladi.


So'z o'yini: o'quvchilar guruhlariga yoki qatorlarga ajratiladi. Har bir guruh boshidagi o'quvchiga har xil harf yozilgan qog'oz tarqatiladi. O'yin boshlangunga qadar guruh ishtirokchilari qog'ozga qanday harf yozilganligini ko'rmasliklari lozim. O'qituvchi buyruq berishi bilanoq, boshlovchi o'quvchilar qog'ozni o'nlab qarab, unda yozilgan harfni ko'radilar va shu harf bilan boshlanadigan so'z topib turgan o'quvchiga uzatadilar. Guruh yoki qator oxiridagi o'quvchi oxiri tugagach, qog'ozni o'qituvchiga keltirib topshiradi. O'yinni birinchi bo'lib tugatgan va so'zlarni to'g'ri yozgan o'quvchilar guruhi g'olib sanaladi.

Xulasa

Xulosa shuki, bu o'yinlardan dars jarayonida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin. Mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, aniq bo'lishiga, imkoni boricha barcha o'quvchilar ishtirok etishiga, faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirishga alohida e'tibor berish lozim. O'quvchilarning o'tgan mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o'rganish jarayonida ham didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

<https://ejedl.academiascience.org>

Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning is a scholarly peer reviewed international Journal



ADABIYOTLAR

1. Shabbazova, D. (2022). CONTENT OF FACTORS DETERMINING THE EFFICIENCY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 630-636.
2. Ruzikulovna, S. D. (2021). The Role Of The Family In The Formation Of Personal Value In Teachers And Students In Primary School. European Journal of Research Development and Sustainability, 2(10), 52-54.
3. Ruzikulovna, S. D. (2021). Primary Education Teacher And Student Teaching Activities And System Of Personal Values. European Scholar Journal, 2 (7), 32-33.
4. Шаббазова Дилфуза Рузикуловна (2020). Особенности развития творческой деятельности учащихся начальных классов. Вестник науки и образования, (10-2 (88)), 88-91.
5. Akramova, F. A. (2020). Main requirements psychological service for families. European Journal of Research and Reflection in Educational Science, Great Britain Progressive Academic Publishing, 16-18.
6. Akmalovna, A. F., Safarovna, T. M., & Shakatulloyevna, U. S. (2021). Violence In The Family And The Need For Psychoprophylactic Measures. The American Journal of Applied sciences, 3(02), 63-72.
7. Akramova F. MAIN PROBLEMS OF PROVIDING PSYCHOLOGICAL SERVICE TO THE FAMILY. Science and Society. 2021;2020(4):105-7.
8. Akmalovna, A. F. (2015). Problems of psychology of gender equality in the system of higher education. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития, 1(13 (eng)), 273-275.
9. Djuraeva SN. Specificity and Features of Application Modern Innovative Technologies Training to Higher Education. Eastern European Scientific Journal. 2018;4:136-9.
10. Jo'rayeva, S. N., & Jumayev, S. Q. (2021). Psixologlarning etiket tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti axborotnomasi, 7(13), 95-101.
11. Жўраева, С. Н., Азимова, Г., & Юнусходжаев, З. ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР. ИННОВАЦИОН ФАН-ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ВОЯГА ЕТКАЗИШДАГИ РОЛИ ВА АҲАМИЯТИ, 60.
12. Жўраева, С. Н. (2021). КОГНИТИВ ҚОБИЛИЯТНИНГ ЁШЛАР ТАЪЛИМИДАГИ РОЛИ. Academic research in educational sciences, 2(11), 1404-1409.
13. Жўраева, С. Н. (2021). ЎҚИШ ФАОЛИЯТИ ТАЛАБА ПСИХИК ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ. Academic research in educational sciences, 2(10), 1219-1230.